

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI TARBIYALANUVCHILARIDA MILLIY G'URUR TUYG'USINI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION TA'LIM

Quvatova Muhayyo Baxtiyor qizi

Termiz davlat pedagogika instituti, Maktabgacha ta'lism yo'nalishi
magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy g'urur tuyg'usini tarbiyalashning ahamiyati va vazifalari haqida atroficha yoritilib berilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarni mактаб та"лимiga tayyorlashda milliy qadriyatlar asosida xulq madaniyatini shakllantirish. Tarbiyalanuvchilarni milliy ruhda tarbiyalashda oila, maktabgacha ta"lim tashkiloti hamda mahallaning o,,zaro integratsiyasi haqida yoritilib o,,tilgan.

Tayanch so'zlar: "Maktabgacha ta"lim tashkiloti", "milliy tuyg,,u", "milliy ong", "milliy his- tuyg'u", "milliy madaniyat", "milliy til", "integratsiya".

Innovatsion ta'lism texnologiyasi - bu o'quv jarayonining samaradorligini oshirish va ta'lism va ta'lim faoliyati uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish uchun mavjud usullar va vositalarni yangi yoki sifat jihatidan yaxshilashni o'z ichiga olgan o'quv va ta'lim faoliyatini tashkil etish metodologiyasi. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hozirgi tendentsiyalar. Ta'limdagi innovatsiyalar ta'lism sohasidagi innovatsiyalarning paydo bo'lishiga qaratilgan kompleks tadbirlarni o'z ichiga oladi. Bu innovatsiyalar ta'lim jarayonini tashkil etishning usul va uslublari, ta'lim va tarbiya jarayonida foydalilaniladigan resurslar, ilmiy nazariyalar va tushunchalar bo'lishi mumkin. Innovatsiya yangi ilmiy bilimlarni, qandaydir kashfiyotlarni, ixtirolarni olishga qaratilgan tadqiqot faoliyatidan foydalananish orqali rivojlanadi. Bundan tashqari, innovatsiyalarning paydo bo'lishi loyihalash ishlarining natijasi bo'lishi mumkin, bunda mavjud ilmiy nazariyalar va tushunchalar asosida amaliy harakatlarni amalga oshirish imkoniyatini aks ettiruvchi instrumental va texnologik bilimlar rivojlanadi. Shunday qilib, innovatsion loyihalar yaratiladi, bu esa keyinchalik yangi texnologiyalarning paydo bo'lishiga olib keladi.

Innovatsiyalar ta'lim faoliyati jarayonida ham rivojlanadi. O'quv jarayonida talabalarning nazariy va amaliy bilimlari rivojlanadi, keyinchalik ular amaliy hayotning innovatsiyalar yaratish bilan bog'liq turli sohalarida qo'llanilishi mumkin.

Maktabgacha ta'lism tashkilotlarida muntazam tashkil etiladigan, tarbiyalanuvchilarni Vatanga sadoqat, milliy g'urur va buyuk ajdodlar manaviy merosiga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy ishlar jarayonida xalqimizning boy ma'naviy-madaniy merosi,

sharqona va umumbashariy qadriyatlar asosida mamlakat, millat kelajagini belgilaydigan ilg'or g'oyalarni, millatlararo do'stlik, hamjihatlikning ahamiyatini, yurtimizda tinchlik va barqarorlikni saqlashning zaruriyati va mohiyatini yoshlar qalbiga singdirish jarayonlariga refleksiv yondashuv (o'tmishga, hodisa va voqelikka tahliliy yondashuv)ni tatbiq qilish bugungi kunda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Mazkur jarayonlarda refleksiv yondashuv asosida, refleksiv ta'limiy muhitni vujudga keltirish tarbiyalanuvchilarining hodisa va voqelikni tahliliy o'rganishga qaratilgan faoliyatini joriy etishni nazarda tutadi. Bu borada, quyidagi refliksiv ta'limiy muhitni shakllantirish jarayoni modeliga e'tibor qaratmoq lozim.

O'tmishni va voqelikni tahliliy o'rganishga qaratilgan faoliyat refleksiv faoliyat bo'lib, refleksiv ta'limiy muhitda tarbiyalanuvchilar o'rganilayotgan tushunchalarga nisbatan o'tmishdagi va bugungi kundagi munosabatlarni o'rganadi, tahlil qiladi va ob'ektiv baholaydi, natijada, ularda Vatan, mustaqillik, uning mazmun-mohiyati, ahamiyati va zaruriyati bo'yicha tasavvur va mustahkam tushunchalar bilan bir qatorda, refleksiv ko'nimlar shakllanadi.

Demak, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etiladigan refleksiv ta'limiy muhitning asosini refleksiv faoliyat nomoyon qiladi. Refleksiv faoliyat tahliliy fikrlashga oid faoliyat bo'lib, tahlil qilish, voqeа va hodisalarni o'zaro bog'liq holda tekshirish, ishonchli va asoslangan ma'lumotlarga asosan, hamda ma'lumotlarni tahlil qilish asosida ma'lum bir voqeа va hodisalarga tegishli bo'lgan va ularning kelib chiqishiga o'z ta'sirini ko'rsatadigan omillarni ikkinchi darajali hisoblanadigan va bevosita ta'sir ko'rsata olmaydigan omillardan farqlash, hodisa yoki voqelik komponentlarining o'zaro bog'liqligini va aloqadorligini o'rganish hamda tahlil qilish asosida xulosa chiqarishdan iborat.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining ongida g'oyaviy bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, ularni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash va Vatanimiz ravnaqiga xizmat qiladigan barkamol avlodni voyaga yetkazish yo'nalishidagi dolzarb vazifalarni amalgalash, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonlarining barcha jahbalarini qamrab olishi zarur bo'lib, mazkur ta'lim-tarbiya jarayonlarida o'rganilayotgan tushunchalarga, hodisa yoki voqelikka nisbatan tarbiyalanuvchilarining qiziqishini shakllantirish va rivojlantirishda refleksiv yondashuv muhim ahmiyatga ega. Chunki, refleksiv yondashuv jarayonida tarbiyalanuvchilarни tahliliy faoliyatga undash va ularda refleksiv ko'nikmalar shakllantirish uchun qulay vaziyatlar vujudga keladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida refleksiv ta'limiy muhitni vujudga keltirish tarbiyalanuvchilarining shaxsiy boshlang'ich tushunchalarini rivojlantirish,

o‘rganilayotgan mavzuga va uning ahamiyati, mazmun-mohiyatiga qiziqishni shakllantirish asnosida ularning faolligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tashkil etiladigan ta’lim-tarbiya jarayonlarida refleksiv yondashuv tarbiyalanuvchilarni ma’lum bir tushuncha to‘g‘risida tasavvur hosil qilishga, ya’ni, o‘rganilayotgan tushunchalarning ahamiyatini o‘rganish, tahlil qilish va ob’ektiv baholash asosida ularda asoslangan tushunchalar shakllantirish yoki o‘tmishdagi munosabatlarni o‘rganish, tahlil qilish va ob’ektiv baholash asosida, o‘z tarixiy o‘tmishimizni o‘rganishga qiziqish hamda tarixiy xotirani shakllantirishga zamin yaratadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tashkil etiladigan refleksiv ta’limiy muhit tarbiyalanuvchilarda tanqidiy va tahliliy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga ijodiy ta’sir ko‘rsatuvchi muhit sifatida xizmat qiladi. Chunki, refleksiv yondashuv jarayonida tarbiyalanuvchilar o‘rganilayotgan tushunchalarning mazmun-mohiyati hamda o‘tmishdagi va bugungi kundagi ahamiyatini mustaqil ravishda tahlil qilish va ob’ektiv baholash asosida xulosa chiqaradi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tashkil etiladigan refleksiv ta’limiy muhit tarbiyalanuvchilarda: mayjud voqelikni qabul qilishda ochiq va keng mushohadali, sezgir va muammolarga nisbatan murosasiz bo‘lish; har tomonlama o‘ylab ko‘rish asosida tahlil qilish va ob’ektiv baholash; yangi tushunchalarni o‘rganishda ularning ahamiyatini inobatga olish; mazkur tushunchalarga bo‘lgan munosabatlarning ijobiylar salbiy tomonlarini tahlil qilish, taqqoslash; tushunchalarning mazmun-mohiyati va bugungi kundagi ahamiyatini anglash; barcha qarashlar, urf-odatlar, an’ana, qadriyat va madaniyatni yaxlit va o‘zaro bog‘liqligini tushunish; o‘z dunyoqarashini kengaytirishga yordam beruvchi hodisa va voqelikni o‘rganish, bilmaganlarini o‘zlashtirish; noto‘g‘ri tasavvurlar, xato va qiyinchiliklarni yengib o‘tishga, shuningdek, yangicha dunyoqarashni shakllanishiga imkoniyatlar yaratadi.

Tarbiyalanuvchi-yoshlarda tahliliy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish refleksiv jarayonlarga asoslanadi, ya’ni, refleksiv ta’limiy muhitda tarbiyalanuvchilar faoliyatini muvofiqlashtirish va tahliliy faoliyat uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratib berish, ya’ni voqelikni va tushunchalarga bo‘lgan munosabatlarni o‘rganish, tahlil qilish va ob’ektiv baholash asosida xulosalar chiqirishga imkoniyat yaratib berishni o‘z tarkibiga oladi.

Refleksiv yondashuvning o‘ziga xos jihatlaridan birit tarbiyalanuvchilarning tahliliy faoliyatini tashkil etish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, tarbiyalanuvchilarni Vatan, mustaqillik va uning mazmun-mohiyatini, bugungi kundagi ahamiyatini o‘tmishdagi munosabatlarni o‘rganish asosida tahlil qilish va ob’ektiv baholashga undash, ularning tahliliy faoliyat jarayonidagi ijodiy yondashuvlarini qo‘llab-

quvvatlash, faolligi va ob'ektiv xulosalarni rag'batlantirish va rivojlantirish, amalga oshirilgan tahlillar asosida ularning dunyoqarashini kengaytirib borishni nazarda tutadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida refleksiv ta'limiy muhit jarayonida tarbiyalanuvchilarni tahliliy faoliyatga undash va uni ta'minlashda ularning faoliyatini kuzatib borish, tahliliy faoliyat natijalarini tahlil qilish, tarbiyalanuvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni muvofiqlashtirish va motivlashtirish asosida ularning faolligini ta'minlash zarur hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida refleksiv yondashuvni joriy etish asosida, refleksiv ta'limiy muhitni vujudga keltirish tarbiyalanuvchilarda o'tmish va kelajak haqidagi boy tasavvurni shakllantirish, ularni tahliliy faoliyatga undash va ularda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish, tarbiyalanuvchilararning shaxsiy boshlang'ich tushunchalarini rivojlantirish, Vatan, mustaqillik va uning mazmun-mohiyati, ahamiyatini yetarli darajada yoritib berish orqali, ularda tarixiy xotirani shakllantirish, kelajakka ishonch tuyg'ularini vujudga keltirishga xizmat qiladi.

Shunday ekan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida refleksiv ta'limiy muhitni shakllantirishda shunday shart-sharoitlarni yaratish zarurki, bunda tarbiyalanuvchilar o'tmishni o'rganish, yaqin tariximizda milliy an'analar, urf-odatlarimiz, rasm-rusumlarimiz, qadriyatlarimiz va ona tilimizga bo'lgan munosabatlarni tanqidiy anglash asosida, Vatan, mustaqillik va uning mazmun-mohiyati, ahamiyatini tushunib yetishi hamda bugungi yaratilayotgan shart-sharoitlarni ob'ektiv baholash imkoniyatiga ega bo'lsin.